

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----

**YOSHLAR MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT AXBOROT
SIYOSATINING USTUVOR VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI****ПРИОРИТЕТНЫЕ ЗАДАЧИ И НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ИНФОРМАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В СФЕРЕ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОЙ МЕДИАКУЛЬТУРЫ****PRIORITIES AND DIRECTIONS OF THE STATE INFORMATION POLICY IN THE FIELD
OF YOUTH MEDIA CULTURE DEVELOPMENT**

Mamatkadirov Sarvarbek Sirojiddin o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishning ilmiy-falsafiy tahlili, Yangi O'zbekistonda yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarda mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari o'rganiladi.

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы развития молодежной медиакультуры в Новом Узбекистане, проводится научно-философский анализ развития молодежной медиакультуры в Новом Узбекистане, определяются приоритетные задачи развития молодежной медиакультуры в Новом Узбекистане. В статье рассматриваются приоритетные задачи и направления государственной информационной политики по формированию медиакультуры среди молодежи.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of youth media culture in New Uzbekistan, the scientific and philosophical analysis of the development of youth media culture in New Uzbekistan, and the priority tasks of the development of youth media culture in New Uzbekistan. The article studies the priority tasks and directions of state information policy in the development of youth media culture.

Kalit so'zlar: globalashuv, ijtimoiy-falsafiy tahlil, yoshlar mediamadaniyati, motivatsiya, axborot siyosati, nazariy-metodologik asos.

Ключевые слова: глобализация, социально-философский анализ, молодежная медиакультура, мотивация, информационная политика, теоретико-методологическая основа.

Key words: globalization, socio-philosophical analysis, youth media culture, motivation, information policy, theoretical and methodological basis.

KIRISH

Bugungi kunda sivilizatsiyaning uchinchi to'liqini sifatida e'tirof etilayotgan axborotlashgan jamiyat asoslari shakllanayotgan ekan, unda milliy qadriyatlarimizning ustuvorligiga erishish taraqqiyotimizning barqaror rivojini ta'minlaydi. Aksincha, milliy qadriyatlarga tayanmagan axborotlashgan jamiyat ommaviy madaniyatlar ta'sirida axloqiy omillardan uzoqlasha boradi. Bu halokatli jihatdir. Bu borada olim Rahmon Qo'chqor masalaga quyidagicha yondashadi: "O'ziga "axborot dunyosi", "axborotlashgan jamiyat" deb nom qo'yib olgan bugungi jumla jahonda u yoki bu voqea-hodisa haqida (u tarixda yuz berganmi yoki kuni kecha sodir bo'ldimi – farqi yo'q) ommaviy axborot vositalari "topib" tarqatayotgan ma'lumot, "tezkor xabar" qancha ko'paysa, o'sha voqea-hodisaga doir asl haqiqat shuncha mavhumlashib bormoqda". Davlatning axborot siyosati "axborotni to'plash, qayta ishlash va uni tarqatish bilan bog'liq bo'lgan kishilar hayot faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlarini ifodalaydigan, ular va ularning vakillari orasida ijodiy, konstruktiv muloqotning ta'minlanishidir".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Global axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash, yoshlarning axborot madaniyati va mediasavodxonligini oshirish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltshtirish, mediamadaniyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari Thomas Schindlmayr, Audun Beyer, Marija Ignjatijevish, John Mueller, Eric McLuhan, Andrew Hart, Havelock Eric, Heim Michael,

FALSAFA

Innis Harold, O.V.Merkulova, I.A.Akimova, D.A.gurjiy, I.Rumin, B.M.Hasanov, B.S.Alimov, B.E.Qarshiyev, N.M.Kodirov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlat axborot siyosatining obyektlari nashr etiluvchi ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnallar va kitoblar nashri, elektron OAV – televideniye, radio, internet, shuningdek aloqa vositalari – telefon, peyjerlar hisoblanadi. «Axborot siyosatini siyosiy ta'sir quroli va siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida qarash mumkin: axborot siyosatining subyektlari axborot yordamida kishilar ongi, psixikasi, ular axloqi va ular faoliyatiga davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlari va shaxsiy manfaatlari doirasida ta'sir ko'rsatishi mumkin».

Inson ongi va qalbi uchun kurash sharoitida axborot siyosati tushunchasi odatda mavjud informatsion oqimlar va resurslar bilan har xil institutsional subyektlarning (masalan, axborot bilan ishlashda o'z qarashlariga va manfaatlariga ega bo'lgan davlat yoki davlat organlari yoki alohida tashkilotlar va idoralar) muomala qilish usuli sifatida talqin qilinadi.

Bizning fikrimizcha, axborot siyosati informatsion resurslar vositasida milliy manfaatlarining barqarorligini ta'minlashga, shuningdek milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarga qarshi qaratilgan faoliyat bo'lib, davlat organlari va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi.

Globallashuv jarayoniga xos jihatlari - axborot orqali ta'sir ko'rsatish, axborot xurujlari, gegemonlikni da'vo qiluvchi davlatlar tomonidan uyushtirilayotgan g'oyaviy-madaniy ekspansiya, o'z madaniyati va ma'naviyatini moddiy jihatdan ta'minlangan g'arb va o'z taraqqiyoti sari odimlayotgan sharq xalqlari turmush tarzi orasidagi farqlarni zo'r berib, targ'ib qilish hollaridir. Shu bois ham globallashuv jarayonining o'ziga xos jihati - inson ongi va qalbi uchun kurash davri sifatida baholanmoqda.

Bugungi kunda kishilarga axborot orqali ta'sir ko'rsatishga xizmat qiluvchi vositalar strategik ustunlikka erishish vositasi bo'lib qoldi. Endilikda olimlar tomonidan axborot orqali ta'sir deganda axborot quroli (avvaldan muayyan maqsad sari yo'naltirilgan uzatiladigan, qayta ishlanadigan, yaratiladigan va qabul qilib olinadigan axborotni uzatish vositasi) vositasida insonlarning ongi va qalbiga ta'sir o'tkazish sifatida baholanmoqda. Zero, axborot orqali samarali ta'sir ko'rsatish muayyan maqsad targ'ibi yo'lida kishilarning fe'l-atvori, o'zligi, axloqi va ruhiyatiga, jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitga, jamoatchilik fikrining ijobiy yoki salbiy tomonga rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus axborotlarni yaratish va tarqatish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti axborot vositasida ta'sir ko'rsatishning turli samarali vosita va usullarining vujudga kelishiga imkoniyat yaratdi. Natijada axborot omili yetakchi o'ringa chiqishi bilan bir qatorda u axborot qarama-qarshiliklarini ham vujudga keltirib, ushbu soha ham ayrim olimlarning tadqiqot obyekti safidan o'rin oldi. A.Erkayevning fikriga ko'ra: "Ommaviy kommunikatsiya vositalari –radio, kino (keyinchalik televideniye, internet va hokazolarning) vujudga kelishi, komikslar, ko'ngilochar asarlar, gramplastinkalar (keyinchalik video va audiodisklar) hamda boshqa madaniy iste'mol buyumlarining sanoat usulida "ulgurji" ishlab chiqarilishi sababli moddiy buyumlar qatorida ma'naviy mahsulotlarning ham standartlashuvi yuz berdi. Ma'naviy-madaniy mahsulotlar iste'mol tovariga aylandi. Ularning shakli va mazmuni mahalliy, mintaqaviy va milliy qiyofalarini, xususiyatlarini yo'qota boshladi".

Axborot qarama-qarshiliklari nazariyasi sohasida rossiyalik mutaxassis, texnika fanlari doktori S.P.Rastorguyev axborot urushi tushunchasini "informatsion tizimlarning moddiy sohada ma'lum bir yutuqqa erishish maqsadida ochiq yoki bir-biridan yashirin holatda maqsadgayo'naltirilgan axborot ta'siri" sifatida baholaydi.

Bunda u qarama-qarshi tomon vaqtincha yetkazilgan zararni bartaraf etish bilan band bo'lganida qarshi tomon ustunlikka ega bo'ladi deb aytadi. Olimning fikricha axborot urushi o'z xususiyati va belgilariga ko'ra odatdagi urushdan farq qilmaydi. Agressor qarshi tomonning barcha boshqaruv tizimini informatsion mo'ljalga olgan holda o'ziga bo'ysundirishga erishadi va g'alaba qozonadi.

S.Rastorguyevning fikriga ko'ra, himoyani tashkil qilishning samarali usullari ham mavjud: mavjud xavfning ko'lamini kamaytirish; "keraksiz axborotlarni" asta-sekin yo'qotish; o'z boshqaruv tizimi ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Olimning ta'kidlashicha - axborot qurolini qo'llash strategiyasi doim olg'a intiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Uning fikricha, bu ilmiy jamoatchilik tomonidan oxirigacha anglab yetilmagan juda muhim natija bo'lib, informatsion qurolning olg'a intiladigan xarakterini belgilaydi va har qanday kuchli raqibning imkoniyatlarini baholashga yordam

beradi. Shunday qilib, aytish mumkinki, bir davlatdan ikkinchi davlatga maqsadga yo'naltirilgan holda berilgan axborotning hajmi axborot tajovuzkorligini aniqlash o'lchami hisoblanadi.

Darhaqiqat, har qanday davlat u qudratli, sanoatlashgan, jahonda o'zining munosib o'rnini egallagan davlat bo'ladimi, endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan rivojlanayotgan mamlakat bo'ladimi, o'zining xavfsizligini ta'minlashga, mamlakat fuqarolarini mafkuraviy tahdidlardan himoyalashga jiddiy e'tibor qaratishga mas'ul. Bu holat davlatni turli axborot-psixologik tahdidlardan himoyalashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, qator G'arb mamlakatlarida «axborot urushi», «psixologik urush» kabi atamalar qo'llaniladi. O'zbekistonda «mafkuraviy tahdid» deb ataluvchi hodisa hamda «axborot urushi», «psixologik urush» kabi atamalar mohiyatan bir-biriga ancha yaqin turadi. Yetakchi xorijiy mamlakatlar o'zlarini xuddi ana shu axborot-psixologik urushlardan himoyalashga katta e'tibor qaratayotgan ekan, mustaqil O'zbekiston ham mafkuraviy tahdidlarning mavjudligi sharoitida milliy xavfsizlik masalalarini yetakchi o'ringa qo'yayotganligi – mamlakatimiz fuqarolari manfaatleri, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, demak insoniyatning tinchligi yo'lida qilinayotgan siyosiy faoliyatdir.

«Axborot urushi» tushunchasi bilan bir qatorda «psixologik urush» atamasi ham ilmiy-ommaviy muomalada faol qo'llanilmoqda. «Psixologik urush» atamasi ilk bor britaniyalik tarixchi J.Fuller tomonidan 1920 yilda qo'llangan. U birinchi jahon urushini tahlil qilar ekan, urushning nafaqat qurolli to'qnashuvlardan, balki davlatlarning bir-birlariga o'tkazgan axborot-psixologik tahdidlaridan ham iborat bo'lganligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari bugungi kunda keng qo'llaniladigan «psixologik amaliyot (operatsiya)» atamasining paydo bo'lishi ham urush bilan bog'liq. Bu atamani ilk bor AQSH dengiz kuchlari kontr-admirali E.Zaxarias qo'llagan. U Yaponiya bilan urushda nafaqat qurol kuchidan foydalanish, balki raqib askarlariga ruhiy bosim ko'rsatish, ulardagi vatanparvarlik tuyg'ularini so'ndirish lozimligini ta'kidlagan. Ko'rinib turibdiki, mafkuraviy kurashlarning rivojlanishi asosan urushlar bilan bog'liq bo'ladi yoki bunday kurashlar davlatlar orasida qurolli to'qnashuvni keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash joizki, jahonda mavjud bo'lgan ikki qutbli tizim uzoq yillar davom etgan «sovuq urush»ni keltirib chiqardi. Bu holat esa davlatlar o'zlarini mafkuraviy jihatdan himoyalashlari lozimligini taqozo etardi. Shu bois, 1953 yilda AQShni turli tashqi mafkuraviy tahdidlardan, axborot-psixologik amaliyotlardan himoyalash maqsadida AQSH prezidentining axborot-psixologik strategiyasi bilan shug'ullanuvchi davlat maslahatchi xizmati joriy qilinadi. Bu xizmat turli mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha izlanishlar olib boradi. AQSH prezidenti Duayt Eyzenxauer shunday deb yozadi: «Biz sovuq urush olib bormoqdamiz. Bu urushdan ko'zlangan maqsad aniq bo'lmasa, u o'zining mazmunini yo'qotadi. Biz bu urushni olib borayotganligimiz boisi, harbiy harakatlarsiz g'alabani ta'minlashdan iborat. Chunki, bugun ikki qarama-qarshi tizim yonma-yon yashayotganligi tufayli, bizning tizimimiz insonlarni o'ziga ko'proq jalb qilishi lozim. Insonlar qalbi, yuragi va aqlini o'ziga ko'proq jalb qila olgan tizimgina kelajakda g'alaba qozonishi muqarrardir».

Aytish mumkinki, AQShning o'sha vaqtlardagi prezidenti g'alabani asosiy omili sifatida «tizimining kishilar ongi va qalbi uchun jozibadorligi»ni ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kunda ham mafkuraviy tahdidlarni amalga oshirayotgan ba'zi kuchlar o'z g'oyalari jozibali qilib yetkazishga intilmoqdalar. Shu bois davlatning axborot siyosatidagi xususiyatlardan biri – o'z hududida fuqarolar faoliyatini umumiy maqsad sari yo'naltirishni targ'ib etishdir.

XULOSA

Axborot-mafkuraviy tahdidlar muammosi bo'yicha izlanishlar olib borgan olim T.Tomas ham axborot resurslarini yadro quroliga tenglashtiradi. Axborot mafkuraviy ta'sirning asosiy vositasi ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning quyidagi xulosalarini keltirish mumkin: «Axborot resurslarini boshqalardan xuddi yadro qurolini himoya qilgan kabi himoyalash lozim; axborot resurslari kuchlar nisbatini buzib yuborishi mumkin; axborot xurujlari o'zining boshlanish pallasida unchalik ko'zga tashlanmasligi sababli har doim ham ularning oldini oluvchi choralarni qo'llab bo'lmaydi; axborot xurujlari ekologik xavf-xatar tug'dirmaydi, shu bois dushmanga axborot hujumini uyushtirish yadro qurolini qo'llashdan ko'ra samaraliroq hisoblanadi; axborot amaliyoti mamlakat iqtisodini ham izdan chiqarishi mumkin; axborot xurujlari kishilardagi milliy ruhiyatni zaiflashtirishda samarali usuldir; axborot xurujlari mavjud voqelikni buzib ko'rsatib, mamlakatning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga yoki qarorlar qabul qilish jarayonini buzishga sabab bo'lishi mumkin». Bu kabi axborot xurujlari albatta, mafkuraviy xarakter kasb etadi. Bu ta'sirlar nafaqat davlat uchun balki, jamiyatning xar bir a'zosi, oddiy fuqarolar uchun ham xavf-xatar tug'diradi. Axborot xurujlari bo'yicha amerikalik taniqli olim Uinn Shvartouning fikricha, «Ertami-kechmi, har bir kishi axborot xurujiga duch kelishi

FALSAFA

mumkin. Chunki zamonaviy jamiyatlar axborotga asoslanadi». Shunday ekan, bugungi shiddatli globallashuv sharoitida milliy manfaatlarni yetakchi o'ringa qo'ygan har bir davlat o'zini axborot-mafkuraviy jihatdan himoyalash choralarni ko'rishi milliy taraqqiyotning kelajak rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Акимова И.А. СМИ как фактор формирования идентичности личности в обществе.—М., 2009
2. Гуржий Д.А. Влияние СМИ на формирование общественного мнения. —М.: Молодой ученый, 2015
3. Меркулова О.В. Средства массовой информации как политический инструмент формирования общественного мнения в современной России. —М., 2004
4. Николай Е. Влияние информации сми на формирование общественного мнения. —М., 2021
5. Румин И. Информация и общественное мнение. —М.: Альпина Пабlishер, 2015